

HODIMLARNI SHAXSIY HIMOYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH TARTIBI

Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li

Namangan davlat universiteti Kasb ta'limi kafedrasida o'qituvchisi,

(e-mail: Jasurbek3786@mail.ru)

Qodirov Diyorbek Bo'ltak o'g'li

Namangan davlat universiteti Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ishchi hodimlarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashning qonuniy asoslari, ulardan foydalanish va hodimlarni shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishga o'qitish ilmiy tadqiq etilgan.*

Annotation: *In this article, the legal basis of providing workers with personal protective equipment, their use, and training employees to use personal protective equipment are scientifically researched.*

Аннотация: *В данной статье научно исследуются правовые основы обеспечения работников средствами индивидуальной защиты, их использования, а также обучения работников использованию средств индивидуальной защиты.*

Kalit so'zlar: *Ishchi hodim, shaxsiy himoya vositasi, zararli omillar, filtrlar, kimyoviy moddalar*

Key words: *Worker, personal protective equipment, harmful factors, filters, chemicals*

Ключевые слова: *Работник, средства индивидуальной защиты, вредные факторы, фильтры, химикаты.*

Barcha ishlab chiqarish korxonalarida ishchi-xodimlarning mehnat muhofazasini ta'minlash asosiy vazifalardan biri sanaladi. Mehnat muhofasi va xavfsizlik texnikasi mutaxassislari xodimlari tomonidan zarari mehnat sharoitlari mavjud ish o'rinlarida mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yorlariga qat'iy rioya etilishi, ishchi va xodimlarni belgilangan tartibda maxsus kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishlari nazoratga olinishi kerak.

Maqsad ish o'rinlaridagi zararli omillarni oldini olish yoki oldini olish mumkin bo'lmagan zararlarni kamaytirishni ta'minlashdir. Ko'rilayotgan choralarga qaramay, zararni oldini olishning iloji bo'lmasa, shaxsiy himoya vositalari talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining



mehnat haqidagi qonunchilik asoslariga binoan, korxonada ma'muriyati ishchi va xizmatchilarni bepul shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashi, ularni saqlash, yuvish, quritish, dezinfeksiyalash hamda ta'mirlash ishlarini bajarishi kerak. Boshqa tarmoqlar singari yengil sanoat korxonalari ishchilarini ham maxsus korjoma, poyabzal va himoya vositalari bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 22.09.2016 yildagi O'RQ-410-son "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi qonunida shaxsiy himoya vositalariga alohida ta'rif berilgan bo'lib, 18-moddasida va yangi tahrirdagi "Mehnat kodeksi" bir qator bandlarida shaxsiy himoya vositalari foydalanish berilish, ishlatish tartiblari belgilangan[1,2].

Shaxsiy himoya vositalari — xodimga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta'sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoyalani uchun foydalaniladigan texnik vositalar va boshqa vositalar[1].

18-modda. Xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash



- Mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlar belgilangan normalar bo'yicha sut (shunga teng bo'lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari), davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun), maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal hamda boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan bepul ta'minlanadi. Bunday ishlarning ro'yxati, ularni berish normalari, ular bilan ta'minlash tartibi va shartlari jamoa shartnomalari hamda kelishuvlarida belgilanadi, agar ular tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi bilan kelishuvga ko'ra, qonunchilikda belgilangan normativlarga muvofiq belgilanadi.
- Xodimlarning shaxsiy himoya vositalarini olish, saqlash, yuvish, tozalash, ta'mirlash, dezinfeksiya qilish va zararsizlantirish ish beruvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

32-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga javob bermaydigan, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun javobgarlik



Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga javob bermaydigan, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va yetkazib berganlik iste'molchilarga yetkazilgan zararining o'rnini qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida belgilangan mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga muvofiq bo'lmagan ishlab chiqarish vositalarini, *shaxsiy himoya* vositalarini va jamoaviy himoya vositalarini, shu jumladan chet ellardan olingan shunday vositalarni sotish, tarqatish va reklama qilish taqiqlanadi hamda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi

Amaldagi Mehnat kodeksidagi kabi, qonun loyihasida ham yakka tartibdagi himoya vositalari mehnatni muhofaza qilishga doir talablarga mos kelishi hamda muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lishi shartligi hamda mehnatni muhofaza qilishning belgilangan normalariga va talablariga muvofiq ish beruvchining mablag'lari hisobidan shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishi belgilab qo'yilgan. Yangi tahrirda bu majburiyat yanada aniqlashtirildi, unga ko'ra, endi xodimlarni yakka tartibda himoya qilish vositalarini sotib olish, saqlash, yuvish, tozalash, ta'mirlash, dezinfektsiya qilish va zararsizlantirish faqat ish beruvchining mablag'lari hisobiga amalag oshiriladi.





1-rasm (Shaxsiy himoya vositalari)

Nafas olish a'zolarini **ishlab-chiqarishdagi zararli moddalardan** himoya qilishning asosiy maqsadi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalarni nazorat qilish va ishlab chiqarish binolari havosiga zararli aralashmalarning kirib kelishini oldini olishdir. Bunga texnologik jarayonda ishlatiladigan ba'zi moddalarni kamroq zararli moddalar bilan almashtirish, zararli moddalar ajralib chiqadigan joylarni izolyatsiya qilish va yopish, yetarli darajada kuchli dutbo'ron yoki umumiy almashinuv ventilyatsiya tizimlarini o'rnatish orqali erishiladi. Biroq, bunday choralar ko'pincha qimmatga tushadi va darhol amalga oshirilmasligi mumkin. Bunday hollarda **nafas olish a'zolarining shaxsiy himoya vositalaridan** foydalanish imkoniyatini o'rganish kerak. Bundan tashqari, masalan, ta'mirlash ishlarini bajarishda yoki favqulodda vaziyatlarda havo ifloslanishi yuqori bo'lgan joylarga kirish uchun nafas olish a'zolarining shaxsiy himoya vositalari talab qilinadi[5].

Nafas olish a'zolarini shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni talab qiladigan **ishlab chiqarishdagi zararli omillarga** quyidagilar kiradi:

- a) kislorod yetishmasligi;
- b) gazsimon toksin moddalar;
- v) havodagi zararli moddalar;
- d) yuqoridagi omillarning har qanday kombinatsiyasi.

Nafas olish a'zolari uchun shaxsiy himoya vositalarini tanlash. Nafas olish a'zolarini himoya qilish vositalarini tanlash yuqoridagi tasnifga muvofiq ishlab-chiqarishdagi zararli omillarni sinchkovlik bilan baholashga asoslangan bo'lishi kerak, chunki turli xil ishlab-chiqarishdagi zararli omillar har xil turdagi shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni talab qiladi.

Zararli omilni to'g'ri baholash uchun ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan maxsus o'lchov vositalari yordamida havo namunalari olish kerak. Hozirgi kundagi o'lchov vositalari ma'lumotni to'g'ridan-to'g'ri ko'rishni ta'minlaydi va namunalarni

joyida tahlil qilish imkonini beradi. Bunday o'lchov vositalari orasida zamonaviy portativ va bir vaqtning o'zida bir nechta ko'rsatkichlarni, shuningdek, gazlar va bug'lar mavjudligini ko'rsatadigan turli xil zararli (kimyoviy) moddalarni o'lchay oladigan o'lchov vositalari mavjud. Zarrachalar, xususan, chang, metall bug'lari va tumanlardan elektrostatik cho'ktirgichlar, maxsus asboblari va mexanik filtrlar yordamida namuna olish mumkin. Keyin olingan namunalarni laboratoriyada tahlil qilinadi[3].

Ish o'rinlarida mavjud zararli (kimyoviy) moddalardan kelib chiqib hamda belgilangan me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablarga javob beradigan nafas olish a'zolari uchun shaxsiy himoya vositalari tanlanishi lozim.

Xodimlarni shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish bo'yicha o'qitish.

Nafas olish a'zolarining shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi kerak bo'lgan barcha xodimlar malakali o'qituvchi tomonidan shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha o'qitilishi kerak. Ushbu tayyorgarlik jarayonida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

a) kundalik ishda va

ushbu himoya vositalaridan foydalanishni talab qiladigan favqulodda vaziyatlarda, ishlab-chiqarishdagi zararli omillar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek zararni aniqlashning oddiy vositalari va respiratorlardan foydalanish sabablari;

b) nafas olish a'zolarining shaxsiy

himoya vositalarining tavsifi, ularning ishlash tartibi, funktsiyalari va chegaralari;

c) shaxsiy himoya vositalarini qanday kiyish,

niqobni sozlash va havo yetkazib berish klapanlarini sozlash, shuningdek niqobning mahkamligini tekshirish bo'yicha ko'rsatmalar;

d) maxsus qismlarini qachon va qanday holatda almashtirish bo'yicha ma'lumotlar;

e)

sun'iy ravishda yaratilgan favqulodda vaziyatlarda o'qitish;

f)

halokat vaqtida foydalaniladigan shaxsiy himoya vositalarini saqlash joylari bo'yicha batafsil yo'riqnoma;

Ishga

kirishdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda, masalan, bronxit yoki boshqa nafas olish kasalliklariga chalingan shaxslar respiratorlardan kundalik foydalanish bilan bog'liq ishlarga ruxsat etilmasligi kerak[4].

Nafas olish

a'zolarining shaxsiy himoya vositalariga texnik xizmat ko'rsatish. Barcha

nafas olish a'zolarining shaxsiy himoya vositalari oyiga kamida bir marta texnik ko'rikdan o'tkaziladi. Albatta, har foydalanishdan keyin ularni tozalash va diqqat bilan tekshirish kerak. Agar kundalik foydalanish uchun bir nechta odam himoya vositasidan foydalansa, uni har kuni tekshirish kerak. Agar faqat bitta xodim foydalansa, tekshirish haftada kamida bir marta amalga oshiriladi. Nafas olish



vositalarini har kuni tozalash kerak. Maskalarni sovun yoki dezinfektsiyalovchi bilan iliq suvda yuvish, yuvish va havoda quritish kerak. Ular gipoxlorit eritmasi yoki formaldegid bug'i bilan dezinfektsiya qilinishi mumkin. Filtrlar va kimyoviy kartridjlarni dezinfektsiyalash mumkin emasligi sababli, agar mahsulotni bir nechta odam ishlatsa, ularni har kuni almashtirish kerak. Boshqa hollarda, agar nafas olishning haddan tashqari qarshiligi yoki depressurizatsiya aniqlansa, ularni almashtirish tavsiya etiladi[6].

Ba'zi firmalarda, ayniqsa, nafas olish organlarini himoya qilish keng qo'llaniladigan joylarda, texnik xizmat ko'rsatish muammosini hal qilishning eng yaxshi usuli - markaziy tozalash va ta'mirlash ob'ektini tashkil etish degan fikr mavjud.

Nafas olish a'zolarining shaxsiy himoya vositalarini saqlash. Tozalash, tekshirish va kerak bo'lganda ta'mirlashdan keyin respiratorni chang o'tkazmaydigan idishga joylashtirish kerak. Bu maqsadda odatda karton idish yoki quti ishlatiladi. Favqulodda respiratorlar maxsus qulflanadigan shkafnlarni talab qilishi mumkin. Kauchuk qismlar g'ijimlangan holatda saqlanmasligi kerak, chunki bu niqob yoki klapanining konfiguratsiyasi o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Kimyoviy qutilar cheklangan saqlash muddatiga ega va ma'lum vaqtdan keyin (ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq) yetarli darajada himoya qilmaydi. Ular tashlanishi va ularda ko'rsatilgan yaroqlilik muddati tugagandan so'ng almashtirilishi kerak. Filtrga zarar yetishi namlik asosida tezlashishi va mexanik shikastlanishga olib kelishi mumkin[11].

Xulosa. Ishlab chiqarishda ishlaydigan xodimlar sanoat standartlari va amaldagi gigiena standartlariga muvofiq o'zlariga berilgan shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishlari va to'g'ri qo'llashlari shart. Ish beruvchi xodimlarning ish vaqtida ularga berilgan shaxsiy himoya vositalaridan haqiqatda foydalanishini ta'minlash choralari ko'radi.

[Har bir korxonada ishchilar shaxsiy himoya vositalaridan](#) foydalanishlari kerak. Bu baxtsiz hodisalar xavfini kamaytiradi va ishchilarning farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 22.09.2016 yildagi O'RQ-410-son "“Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida” gi qonuni;
2. O'zbekiston respublikasining “Mehnat kodeksi” 30.04.2023 yil;



3. O.R.Yuldashev, R.R.Nurmamatova “Mehnat muhofazasi” Darslik Toshkent-2019 y “Istiqlol nuri”, 428 b.
4. Ibragimov E.I., Gazinazarova S., Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma.-T.:2014.
5. Ibragimov E.I., Gazinazarova S., Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik. -T.:2014.
6. Yuldashev O.R., Djaborova Sh.G., Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik-T.: “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.
7. Yuldashev O va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish.-Mehnat,2005 y.
8. H.H. Shomirzaev. Mehnatni muhofaza va yong‘inni oldini olish tadbirlari. T., “O‘qituvchi”, 1984, 21 bet.
9. Nigmatov I., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik –T.: Iqtisodiyot moliya. 2011. - 260 b.
10. Turagalov , T. D. ., & Nasriddinov , N. J. M. o‘g‘li. (2022). ZAMONAVIY YONG‘IN O‘CHIRISH AVTOMATIK TIZIMLARINING AHAMIYATI VA MUAMMOLARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(6), 705–709. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/2306>
11. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o‘g‘li. (2022). SANOAT KORXONALARIDAN CHIQUYOTGAN ZARARLI MODDALARNI SABABLARI VA YECHIMLARI. Zamonaviy fan va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha xalqaro konferentsiya materiallari , 1 (3), 144-149. <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/597> dan olindi

